



*2024- yil yanvar-iyun oylari  
uchun dastlabki ma'lumot*

# **QASHQADARYO VILOYATI TASHQI SAVDO AYLANMASI**

*Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo  
statistikasi bo'limi:  
Tel. (75) 221-44-28*



## TASHQI SAVDO AYLANMASI



Mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar xorijiy davlatlar bilan savdo aloqalarining jadal o'sishiga xizmat qilmoqda. Xususan, mamlakatning eksport salohiyatini oshirish bo'yicha qabul qilingan qarorlar mahalliy kompaniyalarga tashqi bozorlarda ko'proq tajriba orttirishga imkon beradi. Pirovardida ular jahon savdosida raqobatdosh ustunlikka ega bo'ladi.

Qashqadaryo viloyatida bu borada so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan eksportni rag'batlantirish, importni optimallashtirish va umuman olganda tashqi savdo muvozanatini ta'minlash maqsadida amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida, 2024-yil yanvar-iyun oylarida viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) 608430,8 ming AQSH dollariga yetdi va 2023- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 312010,0 ming AQSH dollariga yoki 2,1 martaga ko'paydi.



## TASHQI SAVDO AYLANMASI

(2024- yil yanvar-iyun oylarida ming AQSH dollari)



### Tashqi savdo aylanmasi

2024- y.: 608430,8 **+2,1 m.**  
(2023- y.: 296420,8)




### Saldo

2024- y.: -57272,8  
(2023- y.: 95007,4)



### Eksport

2024- y.: 275579,0 **+140,8 %**  
(2023- y.: 195714,1)




45,3



### Import

2024- y.: 332851,8 **+3,3 m.**  
(2023- y.: 100706,7)



54,7











**Tashqi savdo aylanmasi** – muayyan davr uchun mamlakat eksporti va importi qiymatining miqdori hisoblanadi. Tovarlarining tashqi savdo statistikasida O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududiga olib kirish (import) yoki O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududidan olib chiqish (eksport) natijasida mamlakat material resurslari zaxiralariga qo‘shiladigan yoki ulardan ayirib tashlanadigan tovarlar hisobi tashqi savdo umumiy hisob tizimi asosida yuritiladi.



TSAda eksport hajmi 275579,0 ming AQSH dollariga (140,8 % ni) va import hajmi 332851,8 ming AQSH dollariga (3,3 martaga ko‘paydi). Hisobot davrida -57272,8 ming AQSH dollari qiymatida manfiy tashqi savdo balansi qayd etildi.



### QASHQADARYO VILOYATI TASHQI SAVDO AYLANMASIDA ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO‘LGAN DAVLATLAR (2024- yil yanvar-iyun oylarida ming AQSH dollari)

XXR	AQSH	TURKIYA	Rossiya Federatsiyasi	Niderlandiya
TSA – 206898,5	TSA – 66893,7	TSA – 54901,1	TSA – 53394,6	TSA – 35377,8
Eksport: 12470,3 Import: 194428,2	Eksport: 64882,9 Import: 2010,8	Eksport: 45193,7 Import: 9707,4	Eksport: 42122,1 Import: 11272,5	Eksport: 62,3 Import: 35315,5
 34,0 %	 11,0 %	 9,0 %	 8,8 %	 5,8 %
Birlashgan Arab Amirliklari	Pokiston	Germaniya	Ekvador	Qozog‘iston
TSA – 22163,9	TSA – 21333,8	TSA – 19062,6	TSA – 16145,5	TSA – 15510,4
Eksport: 20938,4 Import: 1225,5	Eksport: 14490,1 Import: 6843,7	Eksport: 175,3 Import: 18887,3	Eksport: 0,0 Import: 16145,5	Eksport: 12793,5 Import: 2716,9
 3,6 %	 3,5 %	 3,1 %	 2,7 %	 2,5 %











Qashqadaryo viloyati jahonning 74 mamlakati bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSAning nisbatan salmoqli hissasi XXR (34 %), AQSH (5,2 %), Turkiya (9 %), Rossiya Federatsiyasi (8,8%), Niderlandiya (5,8 %), BAA (3,6 %), Pokiston (3,5 %), Germaniya (3,1%), Ekvador (2,7%), Qozog‘iston (2,5) qayd etilgan.



## QASHQADARYO VILOYATINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI

(yanvar-iyun oylarida ming AQSH dollari)


Davlatlar		2022- y.	2023- y.	2024- y.
<b>XXR</b>		<b>61309,4</b>	<b>43551,3</b>	<b>206898,5</b>
	<i>Eksport</i>	12215,7	10953,0	12470,3
	<i>Import</i>	49093,7	32598,3	194428,2
<b>Rossiya Federatsiyasi</b>		<b>38686,7</b>	<b>43883,4</b>	<b>53394,6</b>
	<i>Eksport</i>	24829,6	33342,4	42122,0
	<i>Import</i>	13857,1	10541,0	11272,6
<b>Turkiya</b>		<b>80125,7</b>	<b>62902,6</b>	<b>54901,1</b>
	<i>Eksport</i>	59491,5	53428,3	45193,7
	<i>Import</i>	20634,2	9474,3	9707,4
<b>Niderlandiya</b>		<b>1070,4</b>	<b>849,7</b>	<b>35377,8</b>
	<i>Eksport</i>	4,8	0,0	62,3
	<i>Import</i>	1065,6	849,7	35315,5
<b>Ekvador</b>		<b>205,8</b>	<b>141,6</b>	<b>16145,5</b>
	<i>Eksport</i>	0,0	0,0	0,0
	<i>Import</i>	205,8	141,6	16145,5
<b>AQSH</b>		<b>495,9</b>	<b>1484,6</b>	<b>66893,7</b>
	<i>Eksport</i>	4,1	15,8	64882,9
	<i>Import</i>	491,8	1468,8	2010,8
<b>Pokiston</b>		<b>4668,1</b>	<b>11988,7</b>	<b>21333,8</b>
	<i>Eksport</i>	4483,3	10983,8	14490,1
	<i>Import</i>	184,8	1004,9	6843,7
<b>Germaniya</b>		<b>12374,4</b>	<b>1458,2</b>	<b>19062,6</b>
	<i>Eksport</i>	1019,7	259,0	175,3
	<i>Import</i>	11354,7	3999,2	18887,3
<b>BAA</b>		<b>698,5</b>	<b>25778,2</b>	<b>22163,9</b>
	<i>Eksport</i>	617,2	25748,5	20938,4
	<i>Import</i>	81,3	29,7	1225,5
<b>Italiya</b>		<b>2227,9</b>	<b>2104,6</b>	<b>1848,3</b>
	<i>Eksport</i>	723,4	782,7	556,1
	<i>Import</i>	1504,5	1321,9	1292,2

	Davlatlar	2022- y.	2023- y.	2024- y.
	<b>Eron Islom Respublikasi</b>	<b>13326,2</b>	<b>5794,9</b>	<b>8037,0</b>
	<i>Eksport</i>	10233,3	4575,6	6126,8
	<i>Import</i>	3092,9	1219,3	1910,2
	<b>Polsha</b>	<b>2148,6</b>	<b>10106,6</b>	<b>7008,3</b>
	<i>Eksport</i>	1928,3	9311,8	6874,3
	<i>Import</i>	220,3	794,8	134,0
	<b>Tojikiston</b>	<b>5037,7</b>	<b>3091,5</b>	<b>7427,4</b>
	<i>Eksport</i>	4771,8	2795,7	6995,6
	<i>Import</i>	265,9	295,8	431,8
	<b>Qozog'iston</b>	<b>21241,8</b>	<b>19019,6</b>	<b>15510,4</b>
	<i>Eksport</i>	10276,2	8404,4	12793,5
	<i>Import</i>	10965,6	10615,2	2716,9
	<b>Hindiston</b>	<b>1060,7</b>	<b>5370,5</b>	<b>5779,4</b>
	<i>Eksport</i>	800,0	4118,9	1011,5
	<i>Import</i>	260,7	1251,6	4767,9
	<b>Yaponiya</b>	<b>3547,7</b>	<b>1403,0</b>	<b>10751,5</b>
	<i>Eksport</i>	161,5	26,6	0,0
	<i>Import</i>	3386,2	1376,4	10751,5
	<b>Litva</b>	<b>787,2</b>	<b>2781,5</b>	<b>2231,9</b>
	<i>Eksport</i>	185,1	0,0	270,1
	<i>Import</i>	602,1	2781,5	1961,8
	<b>Vetnam</b>	<b>0,1</b>	<b>5992,7</b>	<b>3390,1</b>
	<i>Eksport</i>	0,0	5930,4	3319,7
	<i>Import</i>	0,1	62,3	70,04
	<b>Kanada</b>	<b>491,0</b>	<b>1028,2</b>	<b>1896,6</b>
	<i>Eksport</i>	0,0	0,0	284,4
	<i>Import</i>	491,0	1028,2	1612,2
	<b>Bangladesh</b>	<b>0,0</b>	<b>551,4</b>	<b>2141,3</b>
	<i>Eksport</i>	0,0	551,4	2141,3
	<i>Import</i>	0,0	0,0	0,0

## QASHQADARYO VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA TASHQI SAVDO AYLANMASI

(2024-yil yanvar-iyun oylari ming AQSH doll.)\*

**Eng yuqori hajm,**  
ming AQSH dollari




**Eng quyi hajm,**  
ming AQSH dollari

Viloyat tashqi savdo aylanmasi tarkibida eng yuqori ulushini Nishon tumani 47,2 % ulush bilan 287450,5 ming AQSH dollarini, eng quyi ulushini esa Muborak tumani 0,3 % ulush bilan 2061,3 ming AQSH dollarini tashkil etdi.

\* Tabiiy gaz va elektr energiyasi yetkazib berish, shuningdek, maxsus eksport bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlar, O'zbekiston Respublikasi viloyatlari, shaharlar va tumanlari bo'yicha taqsimlanmagan

## QASHQADARYO VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI

(yanvar-iyun oylarida ming AQSH dollari, ulushi, % da)



2024- yil yanvar-iyun oylarida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 14,3 % ni tashkil etib, tashqi savdo aylanmasidagi ulushi, 2023- yilning mos davriga nisbatan 52,8 % ga kamaygan.



Qashqadaryo viloyatining boshqa xorijiy davlatlar bilan TSA 2024- yilning yanvar-iyun oylarida 2023- yilning mos davriga nisbatan 12,8 % ga ko'paygan va jami TSAdagi ulushi 85,7 % ni tashkil etdi.

Qashqadaryo viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi 2024- yil yanvar-iyun oylari holatiga ko'ra, 87081,9 ming AQSH dollarini tashkil etdi. Shundan eksport 68301,1ming AQSH dollariga yetgan bo'lsa, import 18780,8 ming AQSH dollari qiymatida qayd etildi.



### QASHQADARYO VILOYATINING MDH MAMLAKATLARI BILAN UMUMIY TASHQI SAVDO AYLANMASIDAGI ULUSHI (2024- yil yanvar-iyun, ulushi, % da)

Rossiya – 61,3



Qozog'iston – 17,8



Tojikiston – 8,5



Ozarbayjon – 1,7



Ukraina – 1,6



Moldova  
Respublikasi – 1,6



Qirg'iz  
Respublikasi – 4,4



Turkmaniston – 0,7



Belarus  
Respublikasi – 2,4



Armaniston – 0,1




Qashqadaryo viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasining eng yuqori hajmlari Rossiya (61,3 %), Qozog'iston (17,8 %) hamda Tojikiston (8,5 %) davlatlari bilan qayd etildi.



## QASHQADARYO VILOYATINING YEOIIGA A'ZO DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI

(yanvar-iyun oylarida ming AQSH dollari, ulushi, % da)



Qashqadaryo viloyatining Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqiga a'zo davlatlar bilan tashqi savdo aylanmasi 74857,6 ming AQSH dollarini tashkil etdi. Shundan eksport hajmi 57109,8 ming AQSH dollari, import hajmi esa 17747,9 ming AQSH dollariga yetdi.

Shuni takidlash lozimki, YEOIning a'zo davlatlari (Rossiya Federatsiyasi, Belarus Respublikasi, Qozog'iston, Armaniston va Qirg'iz Respublikasi) o'rtasida tovarlar va xizmatlar harakati, migrantlar harakatlanishi va kapital harakatining erkinligi ta'minlangan bo'lib, yagona bojxona tizimiga ega bo'lgan umumiy iqtisodiy hudud shakllantirilgan.



## QASHQADARYO VILOYATI EKSPORTI

(2024- yil yanvar-iyun oylari)



Xalqaro iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi eksportning barqaror o'sishiga ko'maklashadi va bu o'z navbatida ma'lum natijalarga erishish uchun zamin yaratadi. Mamlakatning eksport salohiyatini oshirish, eksportyorlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, eksportbop mahsulotlar nomenklaturasini kengaytirish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar natijasida, eksportyorlar soni 64 taga yetdi va ular tomonidan 275579,0 ming AQSH dollari qiymatini hamda (2023- yilning mos davriga nisbatan 40,8 % ga ko'paydi) tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta'minlandi.



### XSST\* BO'YICHA EKSPORT TARKIBI

(2024- yil yanvar-iyun oylari ulushi % da)



Qashqadaryo viloyatida tovarlar tashqi savdosi statistik ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi (keyingi o'rinlarda TIF TN) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (keyingi o'rinlarda – XSST) ishlatiladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarni XSST bo'yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.



## QASHQADARYO VILOYATINING XSST BO'YICHA EKSPORTI TARKIBI *(yanvar-iyun oylari yillar kesimida)*

XSST tarkibi	Ming AQSH dollari		O'zgarish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nisbatan, % da	
	2023	2024	2023	2024	2023	2024
<b>Jami eksport</b>	<b>195714,2</b>	<b>275579,0</b>	<b>126,5</b>	<b>140,8</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan:</i>						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	27423,2	35481,8	182,2	129,3	14,0	12,9
Ichimliklar va tamaki	570,3	387,6	160,9	68,0	0,3	0,1
Yoqilg'idan tashqari nooziq-ovqat xom ashyo materiallari	532,3	304,7	78,4	57,2	0,3	0,1
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	28876,5	95035,5	3,8 m.	3,3 m.	14,75	34,5
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	82,3	1372,9	8,1	16,6 m.	0,04	0,5
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	547,8	695	8,4 m.	126,8	0,3	0,3
Sanoat tovarlari	119282,4	136235,9	105,9	116,0	60,9	49,4
Mashinalar va transport asbob-uskunalar	4218,2	1423,4	3,0 m.	31,0	2,15	0,5
Turli xil tayyor buyumlar	7363,6	2747,8	-	37,3	3,8	1,0
Boshqa tovarlar	272,7	-	103,6	-	0,1	0,0
Xizmatlar	2220,1	1894,4	111,7	85,3	1,1	0,7

Eksport tarkibida tovarlar ulushi 99,3 % ni tashkil etib, ulardan sanoat tovarlari (49,4 %), mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar (34,5 %) va oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (12,9 %) hissasiga to'g'ri kelmoqda.

**QASHQADARYO VILOYATINING XSST BO'YICHA EKSPORTI TARKIBI**  
(2024- yil yanvar-iyun oylari)



XSST bo'limi nomi

Ming  
AQSH  
dollari

2023- yilning  
mos davriga  
nisbatan,  
% da

**Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar**

35481,8

111,8

Sabzavotlar va mevalar

30259,2

125,6

**Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari**

1414,6

17,2 m.

To'qimachilik tolalari va ularning chiqindilari

-

-

O'g'itlar uchun xomashyo va mineral xomashyo

41,7

-

Hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan xomashyo materiallari

-

-

Moy olinadigan urug'lar va moy olinadigan mevalar

1372,9

16,7 m.

**Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar**

95035,5

3,3 m.

Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar

95035,5

3,3 m.


XSST bo'limi nomi	Ming AQSH dollari	2023- yilning mos davriga nisbatan, % da
<b>Sanoat tovarlari</b>	<b>139270,3</b>	<b>111,6</b>
Yigirilgan to'qimachilik iplari, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	139239,7	111,6
Qog'oz, karton va qog'oz massasi, yoki tayyorlangan buyumlar	3,6	67,9
Ruda bo'lmagan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar	27,0	130,4
Probka va daraxtdan tayyorlangan buyumlar (mebeldan tashqari)	-	-
<b>Mashinalar va transport asbob-uskunalari</b>	<b>1314,0</b>	<b>33,2</b>
Elektr aloqasi, ovozni yozish va ovozni eshittirish apparaturalari va uskunalari	1313,7	33,2
Elektr mashinalari, apparatlar va asboblari va ularning elektr qismlari	0,3	75,0
<b>Turli xil tayyor buyumlar</b>	<b>10860,6</b>	<b>172,1</b>
Kiyim-kechaklar va ularning anjomlari	10841,0	172,0
Mebel va uning qismlari, yotarjoy buyumlari, matraslar, matraslar uchun tirkaklar, yostiqlar va shunga o'xshash tikilgan mebellar	19,6	2,7 m.
<b>Xizmatlar</b>	<b>1894,4</b>	<b>85,3</b>


O'zbekiston tashqi savdo statistikasida sherik mamlakatlarga quyidagilar kiradi: olib kirishda-tovarlar kelib chiqqan mamlakat, agar kelib chiqqan mamlakat noaniq bo'lsa, jo'natib yuborgan mamlakat. Olib chiqishda - tovarlar yuboriladigan mamlakat hisoblanadi.

2024- yilning yanvar-iyun oylarida MDH mamlakatlariga eksport hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 40,8 % ga ko'paygan.

## MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTI HAJMLARI DINAMIKASI

(yanvar-iyun oylari hajmi  
ming AQSH dollarida)



 ■ Boshqa davlatlar ■ MDH davlatlari  
2024- yil yanvar-iyun oylarida tashqi savdo aylanmasida tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkorlarimiz Turkiya, Rossiya Federatsiyasi, XXR, Pokiston, AQSH, BAA va Misr kabi davlatlar bo'lgan. Ularning umumiy eksportdagi ulushi 75,1 % ni tashkil etdi.



### VILOYAT EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2024- yil yanvar-iyun oylari % da)





## QASHQADARYO VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARGA AMALGA OSHIRGAN EKSPORTI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI *(yanvar-iyun oylari yillar kesimida)*


Davlatlar	Ming AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Egallab turgan o'rni	
	2023-y.	2024-y.	2023-y.	2024-y.	2023-y.	2024-y.
Turkiya	45105,9	45193,7	94,5	86,8	1	1
Rossiya Federatsiyasi	27463,4	30483,8	148,0	111,0	2	3
AQSH	12,9	39954,3	3,1 m.	3097,2 m.	37	2
XXR	5989,5	11429,2	49,1	190,8	7	6
Pokiston	10497,4	12038,3	2,6 m.	114,7	4	5
BAA	21177,4	17279,7	34,6 m.	81,6	3	4
Misr	4892,9	9254,4	7,0 m.	189,1	9	7
Eron Islom Respublikasi	3019,0	5639,5	36,6	186,8	12	11
Polsha	8294,5	6305,8	177,0	76,0	5	9
Tojikiston	1854,3	5697,6	5,0 m.	3,1 m.	14	10
Vetnam	5137,2	2692,0	3,9 m.	52,4	8	14
Qozog'iston	6939,2	9014,1	2,4 m.	129,9	6	8
Bangladesh	551,5	2141,3	-	3,9 m.	23	17
Afg'oniston	1861,9	3848,1	21,6	2,1 m.	13	13
Portugaliya	227,6	4267,2	-	16,8 m.	29	12
Marokash	1355,3	2452,5	-	157,2	15	15
Ozarbajjon	855,3	1023,9	75,9	119,7	18	20
Moldova Respublikasi	1095,8	1225,9	76,0	111,9	16	19
Hindiston	4017,3	1001,5	134,0	24,9	10	22
Ruminiya	0,0	2297,6	-	-	-	16



## QASHQADARYO VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA EKSPORTI

(2024- yil yanvar-iyun oylari ming AQSH doll.)\*

Eng yuqori hajm,  
ming AQSH dollari



Viloyat eksporti tarkibida eng yuqori ulushni Nishon tumani 34,3 % bilan 94566,0 ming AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Dehqonobod tumani 0,5 % bilan 1301,6 ming AQSH dollarini tashkil etdi.





## MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI



Hukumat tomonidan qishloq xo'jaligi va bog'dorchilikni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilayotgani bois eksport qilinayotgan mahsulotlar sifati va hajmi yildan-yilga ortib bormoqda. Jumladan, 2024- yil yanvar-iyun oylarida 94,6 ming tonna meva va sabzavotlar eksporti amalga oshirilgan bo'lib, ushbu ko'rsatkich 2023- yilning mos davriga nisbatan 2,4 m. ga ko'paydi.









Meva-sabzavot mahsulotlarining asosiy eksport bozorlari Qozog'iston (35,6 %), Pokiston (18,2%), Rossiya (32,7 %) hamda Afg'oniston (8,6 %) davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.

2024- yil yanvar-iyun oylarida oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismi bo'lgan 30,3 mln. AQSH dollari qiymatidagi meva-sabzavot eksport qilindi. Bu ko'rsatkich 2023- yilning mos davriga nisbatan 25,7 % ga ko'paydi va jami eksportdagi ulushi 11,0 % ni tashkil etdi.



## MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI

(2024- yil yanvar-iyun oylari o'zgarish sur'atlari, qiymatga nisbatan)

<p><b>Piyoz</b></p> <p>6,2 mln. AQSH dollari</p> <p>27,4 ming tonna</p> <p> 4,5 m ↑</p>	<p><b>Karam</b></p> <p>3,6 mln. AQSH dollari</p> <p>11,3 ming tonna</p> <p> 6,0 m. ↑</p>	<p><b>Loviya</b></p> <p>4,6 mln. AQSH dollari</p> <p>1,2 ming tonna</p> <p> 40,2 % ↓</p>	<p><b>Uzum</b></p> <p>0,6 mln. AQSH dollari</p> <p>0,3 ming tonna</p> <p> 23,8% ↓</p>
<p><b>Pomidor</b></p> <p>0,5 mln. AQSH dollari</p> <p>0,3 ming tonna</p> <p> 33,3 % ↓</p>	<p><b>Sabzi</b></p> <p>2,4 mln. AQSH dollari</p> <p>8,1 ming tonna</p> <p> 3,2 m. ↑</p>	<p><b>Bodring</b></p> <p>0,9 mln. AQSH dollari</p> <p>0,1 ming tonna</p> <p> 61,7 % ↓</p>	<p><b>Sitrus mevalar</b></p> <p>0,05 mln. AQSH dollari</p> <p>0,03 ming tonna</p> <p> 15,0 % ↓</p>



## MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARINING EKSPORT GEOGRAFIYASI (2024- yil yanvar-iyun oylari)

Davlatlar	Ming tonna	Ming AQSH dollari	Ulushi, % da *
 Pokiston	11,7	5479,1	18,1
 Rossiya	32,3	9936,1	32,6
 Afg'oniston	2,3	2609,0	8,5
 Qozog'iston	43,1	10841,7	35,6
 Iroq	0,8	328,3	1,0
 BAA	0,2	52,4	0,1
 Turkiya	0,2	15,4	0,5
 Boshqa davlatlar	4,2	1100,0	3,6

\* qiymat ifodasidan



2024- yil yanvar-iyun oylarida meva va sabzavotlar eksportining qiymat jihatidan eng katta hajmi Qozog'iston davlatiga to'g'ri keldi (meva va sabzavotlar eksporti umumiy hajmining 35,6 % ni), bu ko'rsatkich Turkiya eksport hajmidan 7,0 martaga ko'p.



## TO‘QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI



So‘nggi yillarda yengil sanoatda yuqori qo‘shilgan qiymatdagi mahsulotlar ishlab chiqarish rivojlanib bormoqda. Yengil sanoat iqtisodiy jihatdan O‘zbekiston uchun muhim soha bo‘lgani holda, aholi bandligining yuqori darajasini, shuningdek, sanoat salohiyatiga hamda davlatimizning xalqaro nufuziga hissa qo‘shilishini ta‘minlaydi.

To‘qimachilik mahsulotlarining eksporti hajmlarining oshishini bevosita paxta xomashyosini o‘rniga tayyor mahsulot ishlab chiqarish va qo‘shimcha qiymat yaratish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar natijasi sifatida qarash mumkin.






Xususan, 2024- yil yanvar-iyun oylari yakuni bo‘yicha 139239,7 ming AQSH dollari to‘qimachilik mahsulotlari eksporti amalga oshirilib, umumiy eksportning 50 % ini tashkil etib, o‘tgan yilga nisbatan 11,6 % ga ko‘paydi.

Eksport qilingan to‘qimachilik mahsulotlari tarkibida kiyim-kechak (63,6 %), ipak,paxta,jundan tayyorlangan matolar (36,4 %) asosiy ulushni egallagan.



## TO‘QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI


(2024- yil yanvar-iyun oylari ming AQSH dollari)

	2023-y.	2024-y.
 Kiyim-kechak	6302,9	10841,0
 Sintetik, jun tolalar	-	-
 Ipak, paxta, jundan tayyorlangan matolar	5266,5	6197,8
 Sintetik ip kalava	-	-
 Paypoq mahsulotlari	-	-

Mamlakatimizda yangi ishlab chiqarish texnologiyalari va zamonaviy uskunalardan keng foydalanish, sohada sifat menejmenti tizimining joriy etilishi natijasida mehnat unumdorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Bu, o'z navbatida, tayyor mahsulotlarga jahon bozorlarida o'z o'rnini topish imkonini beradi.



### XIZMATLAR EKSPORTI TARKIBI (2024- yil yanvar-iyun oylari ming AQSH doll.)



Xizmatlar eksporti hajmi 1894,4 ming AQSH dollarini yoki jami eksport hajmining 0,7 % ini tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 14,7 % ga kamaydi. Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi moliyaviy xizmatlar (73,4 %), boshqa xizmatlar (26,1 %) va safarlar (turizm) (0,5 %) hissasiga to'g'ri kelgan.



## QASHQADARYO VILOYATINING IMPORTI

2024- yilning yanvar-iyun oylarida import hajmi 332851,8 ming AQSH dollarini va 2023- yilning mos davriga nisbatan 3,3 martaga ko'paydi. Import tarkibida eng katta ulush, mashinalar va transport asbob-uskunalari (69,7 %), kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar (15,3%) hamda oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (9,0 %) hamda hisobiga to'g'ri keldi.



### XSST BO'YICHA IMPORT TARKIBI (2024- yil yanvar-iyun oylari ulushi, % da)



Tovarlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2024- yilning yanvar-iyun oylarida import qilingan tovarlar hajmi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 232145,0 ming AQSH dollariga ko'paydi va 332851,8 ming AQSH dollarini tashkil etdi.



## QASHQADARYO VILOYATINING XSST BO'YICHA IMPORTI TARKIBI (yanvar-iyun oylari yillar kesimida)

XSST tarkibi	Ming AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nis- batan. % da	
	2023	2024	2023	2024	2023	2024
<b>Jami import</b>	<b>100706,7</b>	<b>332851,8</b>	<b>69,5</b>	<b>330,5</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan:</i>						
Oziq-ovqat mahsu- lotlari va tirik hayvonlar	8106,0	29795,0	112,0	367,6	8,5	9,0
Ichimliklar va tamaki	33,7	154,0	-	457,0	-	-
Yoqilg'idan tashqari nooziq-ovqat xomashyo materiallari	532,3	1441,8	77,0	270,9	4,5	0,4
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash Materiallar	4331,6	3204,5	106,0	74,0	4,4	1,0
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	328,1	110,5	-	33,7	-	-
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash Mahsulotlar	15068,7	50815,4	92,4	337,2	16,3	15,3
Sanoat tovarlari	9540,7	12506,6	63,0	131,1	9,0	3,8
Mashinalar va transport asbob uskunalari	58472,4	232034,4	60,0	396,8	56,5	69,7
Turli xil tayyor buyumlar	2948,2	2484,6	-	84,3	0,1	0,7
Boshqa tovarlar	-	-	-	-	-	-
Xizmatlar	1185	159,7	77,9 m.	13,5	0,7	0,0



## XSST BO'LIMI BO'YICHA AYRIM MAHSULOTLAR IMPORTI TARKIBI (2024- yil yanvar-iyun oylari)

XSST bo'limi nomi	Ming AQSH dollari	2023- yilning mos davriga nisbatan, % da
<b>Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar</b>	<b>30704,9</b>	<b>4,2 m.</b>
Sabzavotlar va mevalar	26712,8	17,6 m.
Tirik hayvonlar	2766,4	97,7
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	1502,0	42,1
Hayvonlar uchun ozuqalar (maydalanmagan donlardan tashqari)	725,9	2,5 m.
Shakar, shakardan tayyorlangan mahsulotlar va asal	62,1	8,9 m.
Kofe, choy, kakao, ziravorlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	20,0	-
<b>Yoqilg'idan tashqari nooziq-ovqat xomashyo materiallari</b>	<b>1441,7</b>	<b>26,8</b>
Yog'li urug'lar va yog'li mevalar	454,0	19,2
Yog'och-taxtalar	673,8	76,1
O'g'itlar uchun xomashyo va mineral xomashyo	50,8	2,9
Hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan xomashyo materiallari	263,1	71,9
<b>Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar</b>	<b>3204,4</b>	<b>74,0</b>
Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	1451,2	72,0
Tabiiy yoki sun'iy gaz	1753,2	77,4
<b>Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar</b>	<b>42476,9</b>	<b>335,5</b>
Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar	39501,0	14,4 m.
Birlamchi shakldagi plastmassalar	1046,4	131,0
Organik kimyo moddalari	1925,8	56,4
Tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari	576,8	72,6
Noorganik kimyo moddalari	1719,1	141,3
Efir moylari, rezinoidlar va attorlik moddalari; hojatxona preparatlari, polirovkalash va yuvish vositalari	114,8	196,6
Birlamchi shaklda bo'lmagan plastmassalar	5186,2	137,0
Bo'yovchi va terini oshlovchi moddalar va bo'yoqlar	113,0	199,6


<b>XSST bo'limi nomi</b>	<b>Ming AQSH dollari</b>	<b>2023- yilning mos davriga nisbatan, % da</b>
<b>Sanoat tovarlari</b>	<b>11534,1</b>	<b>142,6</b>
Cho'yan va po'lat	6135,5	160,0
Boshqa joyda tasniflanmagan metallardan tayyorlangan buyumlar	148,3	19,2
Boshqa joyda tasniflanmagan rezina buyumlar	-	-
Rangli metallar	3380,5	6,6 m.
Probka va daraxtdan tayyorlangan buyumlar (mebeldan tashqari)	0,8	-
Ruda bulmagan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar	1406,7	72,3
To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	305,3	40,9
Qog'oz, karton va qog'oz massasi, qog'oz yoki kartondan tayyorlangan buyumlar	157,0	48,7
<b>Mashinalar va transport asbob-uskunolari</b>	<b>120822,6</b>	<b>9,3 m.</b>
Aniq sohalar uchun maxsus mo'ljallangan mashinalar	-	-
Elektr mashinalari, apparatlari va jihozlari va ularning elektr qismlari	-	-
Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va ularning detallari	-	-
Avtomobillar (havo podushkalaridagi transport vositalari ham)	4810,4	87,8
Kanslyariya mashinalari va ma'lumotarni avtomatik ravishda qayta ishlash uchun asbob-uskunalar	-	-
Energiya generatori mashinalari va asbob-uskunalar	-	-
Elektr aloqasi, ovozni yozish va ovozni eshittirish apparaturalari va uskunolari	115957,3	16,0 m.
Metallarni qayta ishlash mashinalari	-	-
Boshqa transport uskunolari	54,9	25,8
<b>Turli xil tayyor buyumlar</b>	<b>1222,4</b>	<b>96,9</b>
Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari	-	-
Blokli binolar, suv o'tkazish, kanalizatsiya, isitish va yoritish uskunolari uchun armatura va mahkamlash moslamalari	-	-
Boshqa joyda tasniflanmagan har xil tayyor buyumlar	660,1	86,1
Mebel va uning qismlari, yotarjoy buyumlari matraslar, matraslar uchun tirgaklar, yostiqlar va shunga oxshash tikilgan mebellar	562,3	113,7



Tashqi savdo statistikasini yuritish metodologiyasiga ko'ra, tashqi savdo statistikasiga tranzit tovarlar, mamlakatga vaqtincha olib kirilgan yoki undan vaqtincha olib chiqilayotgan tovarlar kiritilmasligi nazarda tutilgan.

 2024- yil yanvar-iyun oylari natijalariga ko'ra MDH mamlakatlaridan import ulushi 5,6 % ni tashkil etib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 29,2 % ga kamaydi.

### MDH VA BOSHQA DAVLATLARDAN TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTI HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar-iyun oylari hajmi ming AQSH dollarida)




■ Boshqa davlatlar ■ MDH davlatlari

 2024- yil yanvar-iyun oylarida Qashqadaryo viloyati 56 ta davlatdan tovar va xizmatlar importini amalga oshirdi. Yetti yirik hamkor davlatlar (Turkiya, Qirg'iziston, Germaniya, Niderlandiya, XXR, Rossiya Federatsiyasi va Yaponiya) jami importning 85,2 % ni tashkil etdi.



### VILOYAT IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2024- yil yanvar-iyun oylari % da)





## QASHQADARYO VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARDAN AMALGA OSHIRGAN IMPORTI HAJMLARI VA O'SISH SUR'ATLARI *(yillar kesimida yanvar-iyun oylari holati)*

Davlatlar	Ming AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmdagi o'rni	
	2023- y.	2024- y.	2023- y.	2024- y.	2023- y.	2024- y.
XXR	24727,8	194428,1	14,3	7,0 m.	1	1
Niderlandiya	772,1	35315,5	72,5	38,4 m.	17	2
Ekvador	141,6	16145,5	68,8	114,0 m.	27	4
Germaniya	3622,5	18887,3	49,2	4,5m.	6	3
Rossiya Federatsiyasi	8608,1	11272,6	72,3	115,9	4	5
Pokiston	966,2	6843,7	5,2 m.	7,1 m.	15	7
Turkiya	9060,4	9707,4	52,4	70,2	2	8
Yaponiya	1321,6	10751,6	39,0	6,6 m.	10	6
Litva	2465,5	1961,8	11,3 m.	77,9	7	12
Hindiston	875,4	4767,9	37,7	4,5 m.	16	9
Kanada	725,0	1612,3	147,7	2,2 m.	18	13
Qozog'iston	8995,5	1910,2	118,6	26,5	3	11
Eron Islom Respublikasi	1053,2	1910,2	35,0	102,6	14	16
Fransiya	549,0	732,8	138,8	133,5	20	19
Qirg'iz Respublikasi	2267,7	3122,5	83,7	125,9	8	10
AQSH	1057,9	2010,8	2,1 m.	144,7	13	14
BAA	29,7	834,3	1406,2	28,1 m.	38	18
Qo'shma Qirollik	150,6	284,9	6,2 m.	189,0	26	25
Finlandiya	1,2	243,6	2,4 m.	203 m.	52	27
Italiya	1305,9	1292,2	88,3	76,2	11	17



## QASHQADARYO VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA IMPORTI

(2024- yil yanvar-iyun oylari ming AQSH dollari)

Eng yuqori hajm,  
ming AQSH dollari

**57,9 %** Nishon – 192884,5

**10,9 %** G'uzor - 36282,6


**8,6 %** Qarshi sh. – 28470,1

Eng quyi hajm,  
ming AQSH dollari

**0,1 %** Mirishkor – 189,6

**0,1 %** Muborak – 227,0

**0,2 %** Chiroqchi – 535,8



2023- y.


2024- y.

Viloyat importi tarkibida eng yuqori ulushni Nishon tumani 57,9 % bilan 192884,5 ming AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Mirishkor tumani 0,1 % bilan 189,6 ming AQSH dollarini tashkil etdi.



## XIZMATLAR IMPORTI TARKIBI

(2024- yil yanvar-iyun oylari ming AQSH dollarida)




2024- yilning yanvar-iyun oylari yakuni bilan xizmatlar importi hajmi 159,7 ming AQSH dollarini tashkil etdi. Xizmatlar importi tarkibining asosiy ulushi transport xizmatlari (96,9 %) bo'ldi.



## SANOAT MAHSULOTLARI IMPORTI



2024- yil yanvar-iyun oylarida import tarkibida sanoat mahsulotlari tovarlari hajmi 12506,6 ming AQSH dollarini tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 31,1 % ga ko'paydi hamda, importning umumiy hajmidagi ulushi 3,8 % ga yetdi.



### SANOAT MAHSULOTLARI IMPORT QILINGAN ASOSIY HAMKOR DAVLATLAR

(2024- yil yanvar-iyun oylari ulushi, % da)

1846,5 ming  
AQSH doll.  
ulushi – 31,2 %

724,0 ming  
AQSH doll.  
ulushi – 12,2 %

5343,5 ming  
AQSH doll.  
ulushi – 25,1%



**Qirg'iziston**



**Rossiya  
Federatsiyasi**



**XXR**

438,1 ming  
AQSH doll.  
ulushi – 7,4 %



**Qozog'iston**

219,0 ming  
AQSH doll.  
ulushi – 3,7 %



**Eron**



2024- yil yanvar-iyun oylarida sanoat mahsulotlari importi hajmi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2965,9 ming AQSH dollariga ko'paydi. Ushbu tovarlarni Qashqadaryo viloyatiga yetkazib berishning asosiy qismi Qirg'iziston - 1846,5 ming AQSH dollari (31,2 %) XXR - 1485,0 ming AQSH dollari (25,1 %), Rossiya Federatsiyasi - 724,0 ming AQSH dollari (12,2 %) kabi davlatlarga to'g'ri keldi.